

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.P.Jurayev

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga
xos jihatlari.....285

Sh.Sh.Jumayev

Farg'ona viloyatidagi yevangel xristian baptistlar jamoasi tarixi va bugungi kundagi
faoliyati293

K.Abdurakhmanova, M.Jurabekova

Reflection of folk medicine in the elements of primitive religion
(the example of Jizzakh)297

ADABIYOTSHUNOSLIK

S.Mirzaeva, N.Y.Usarova

A comparative analysis of the characters of king Arthur and Alpomish in english and
uzbek folklore literature301

A.G.Sabirdinov

Jadidchilik, muxtoriyat, mustaqillik307

G'.O.Xolbutayev

Askiya-so'z san'ati, hozirjavoblik va zukkolik mahorati310

O.Barziyev, F.Baxtiyor

Sayohat taassurotlari bilan bog'liq poetik turkumlar tasnifi317

S.A.Xodjayev

Folklor namunalarida uchlik timsoliga asoslangan ramzlar323

Н.К.Сабиров, В.А.Гиёсова

Движение джадидизм и узбекская детская литература326

G.Ch.Muratova

G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qahramon ruhiy olami tasviri329

TILSHUNOSLIK

N.R.Gafurova

O'zbek va ingлиз tillaridagi o'zlashma so'zlar va neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari333

Q.Sh.Kaxarov, D.M.Dehqonova

O'zbek va ingлиз tillarida iboralarning qo'llanishi338

Y.E.Ro'ziboyeva

Ingliz va o'zbek tillaridagi estetik qadriyatlarni ifodalovchi maqollarning
lingvakulturologik xususiyatlari341

N.R.Gafurova

Neologizmlarning tarjimada ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlari344

M.G.Khoshimov

Problems of general and typological theory of composite sentence with a parenthetical
clause as an invariant type of syntactic unit347

D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova

Jahon tilshunosligida matn tadqiqi haqida354

M.M.Aslonov

The educational process and content of educational activities in the
"House of Bukhara education"358

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi forsiy sinonimlar xususida362

G.R.Mamadalieva

Ingliz va o'zbek tillarida "Foot/Oyoq" leksemalarining semantik tahlili367

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika373

H.U.Davlatova

Muloqotning nazariy asoslari hamda sohaga oid qarashlar376

H.U.Davlatova, H.Abdurahmonova

Milliy muloqot kompetensiyasini shakllantirish omillari380

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA YER EGALIGI TIZIMI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

СИСТЕМА ЗЕМЕЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ В XIV КОРОЛЕВСТВЕ КОНЦА XIX - НАЧАЛА XX ВЕКА

THE LAND OWNERSHIP SYSTEM AND ITS SPECIFIC ASPECTS IN THE KINGDOM OF XIV AT THE END OF THE XIX CENTURY AND THE BEGINNING OF THE XX CENTURY

Jurayev Xusniddin Pazliddinovich¹

¹O'zbekiston tarixi kafedrasini dotsenti. t.f.f.d.

Annotatsiya

Xiva xonligida yer aholining daromad oluvchi eng asosiy manbayi hisoblanganligi sababli bu davrda yerga munosabatning va u bilan bog'liq bo'lgan har qanday harakatlarning o'ziga xos tartib-qoidalari yaratilgan. Ayniqsa, o'rganilayotgan davrda yer va dehqonchilik bilan bog'liq masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'lish uchun, eng avvalo, bu hududdagi yerga egalik tartibini aniqlash zarurati tug'iladi. Mazkur maqolada Xiva xonligida yer egaligi tizimi bilan bog'liq masalalar tahlil qilinadi.

Аннотация

В связи с тем, что в Хивинском ханстве земля считалась основным источником дохода населения, в этот период были созданы определенные процедуры обращения с землей и любых действий, связанных с ней. Особенно в исследуемый период вопросы, связанные с землей и сельским хозяйством, поднялись на уровень государственной политики. Чтобы иметь определенные представления о социально-экономической жизни Хивинского ханства, прежде всего, необходимо определить порядок владения землей на этой территории. В данной статье анализируются вопросы, связанные с системой землевладения в Хивинском ханстве.

Abstract

Due to the fact that the land was considered the main source of income for the population in the Khiva Khanate, during this period specific procedures for dealing with the land and any actions related to it were created. Especially in the period under study, the issues related to land and farming have risen to the level of state policy. In order to have certain ideas about the socio-economic life of the Khanate of Khiva, first of all, it is necessary to determine the order of land ownership in this area. This article analyzes issues related to the system of land ownership in Khiva Khanate.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, yer egaligi, tanob, podshohi, meros mulk, "dayak", bevatana, salg'ut.

Ключевые слова: Хивинское ханство, землевладение, таноб, царь, наследственное имущество, "даяк", беватан, салгут.

Key words: Khanate of Khiva, land ownership, tanob, king, inherited property, "dayak", bevatana, salgut.

KIRISH

Xiva xonligida yerga egalik munosabatlarining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan:
1.Podshohlik (davlat) yerkari; 2.Mulk (xususiy mulk) yerkari; 3.Vaqf mulki shakllari; 4.Jamoa yerkari (XIX asr boshlarigacha mavjud bo'lgan). Podshohlik yoki davlat yer egaligi Xiva xonligidagi to'qaylar, qayirlar, qumlar, ko'llar joylashgan hududlardagi jami yer maydonlaridan tashkil topgan. Davlat yerkari XIX asrning oxirlari – XX asrning boshlarida 86 ming tanobni tashkil qilganligi mualliflar tomonidan keltirib o'tilgan [1;85]. Davlat tepasiga kelgan har bitta xon mazkur podshohlik yerkariga (yer mulkini bo'lib berish, soliq solish) egalik tartibini nazorat qilgan va davlat yerkarining o'zlashtirilmagan qismilariga suv tarmoqlarini tortib borib, yangi yerkarga suv chiqarish yo'li bilan xon, xon xonadoni va uning yaqin qarindoshlari ham mulk yerkariga ega bo'lib olganlar. K.Nurjonov va G'.Xo'janiyozovlarning keltirgan ma'lumotiga ko'ra, rus bosqiniga qadar xonlikda umumiy hisobda 1 mln. 681 ming desyatina (Desyatina – yuza o'Ichovi bo'lib, XVIII asrda 2400 kv sarjingga, XIX asr boshlaridan 3200 kv sarjingga teng bo'lgan) yer bo'lgan. Shundan 324 ming desyatina yer o'zlashtirilib, ekin ekilgan, 224 ming desyatina yer aholi va masjidlarning vaqf yerkari hisoblangan bo'lsa, 100 ming desyatina yer xonning xususiy mulki bo'lgan [2;8]. Qolgan qismi esa o'zlashtirilmagan qarovsiz yerkaralar hisoblangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xiva xonligidagi yerga egalik munosabatlari haqida ko'pgina mualliflar ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan bo'lsalar-da, xonlikdagi davlat yerkari, xonning davlat yerkaridagi yerga egalik

tartibi va xonning alohida mulk yerlari klassifikatsiyasi masalalari batafsil yoritilmasdan qolgan. Jumladan, mazkur mualliflardan M.Sazanovaning XIX asrda Xiva xonligidagi yer munosabatlariiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotida etnografik va qisman arxiv materiallari asosida yerga bo'lgan munosabatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, u xonlikdagi jami yer davlatnikи hisoblanishini, uning eng yuqori darajali egasi esa davlat tepasida turgan xon ekanligini yozgan va davlat yerlari hamda mulk yerlarining klassifikatsiyasida noaniqliklarga yo'l qo'ygan [3;671]. Muallif mamlakatdagi yerga egalik munosabatlarida davlat yerlari, mulk yerlari va vaqf yerlari shakllari mavjudligini to'g'ri ta'kidlasa-da, ammo davlat yer egaligi va mulk yer egaligi munosabatlari batafsil yoritib berilmasdan qolgan. N.N.Muravyev xonlik hududidagi yerlarning egalik tartibini tahlil qilar ekan, u ham Xiva xonligidagi jami yerlarning haqiqiy egasi xonning o'zi ekanligini ta'kidlaydi [4;144].

Hatto xonlik hududidagi inoqlarning qadim zamonlardan beri tasarruf qilib kelayotgan yerlari ham, aslida, xonning mulki sanalganligini aytib o'tadi. Shuningdek, u ham davlatdagi jami yer maydonlari (mulk yerlar, vaqf yerlar va jamoa yerlar) xonning qo'l ostida birlashgan, degan noto'g'ri xulosani shakllantiradi. Zero, davlat tepasiga kelgan xon davlatdagi mavjud jami yerlarning emas, balki yirik feodallarning ixtiyoridan va vaqf yerlaridan tashqari bo'lgan, o'zlashtirilmagan hududlardagi yerlarga egalik qila olishi mumkin edi. Chunki mamlakat markazidagi va yirik sug'orish tarmoqlari boshlaridagi ekin maydonlarining barchasi allaqachon yirik zamindorlar va mutavallilar qo'l ostida bo'lgan. Shunga qaramay, ayrim hollarda xonlar ko'plab sug'oriladigan yerlar, bog'-rog'larga egalik qilish yo'llarini qidirganliklari va ayrim paytlarda bunga erishganlikni ham ma'lum.

I.Magidovichning yozishicha, podshohlik (davlat) yerlari shaxsiy podshohlik va atoyi yerlarga, mulkini esa yorliqli mulk va atoyi mulk turlariga bo'lgan, bulardan tashqari podshohlik yerlarining shaxsiy hamda otliq yer turlari ham bo'lgan [5;29]. Muallif atoyi mulk, yorliqli mulk va otliq yer turlari davlat yerlari kategoriyasini tashkil qiladi, deb hisoblagan va xonlikdagi davlat va mulk yer egaligi shakllarini aralashtirib yuborgan. Buning natijasida davlatdagi mavjud mulk yerlari davlat yerlari kategoriyasiga kirganligi va ayni paytda davlatning o'zi ham yirik ijrador, mulk yer egalarini egasi yerlarni ijara olgan ijarrachilar, degan noto'g'ri xulosaning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Chunki atoyi mulk, otliq yerlar va yorliqli yerlar xonlikdagi mulk yerlarini tashkil qilgan. Ushbu mulklarning haqiqiy egalarini davlat emas, balki yirik feodallar bo'lib, ular bu yerlarga nisbatan egalik huquqining barcha ko'rinishlaridan (yerga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish) to'liq foydalanganlar va u meros mulk hisoblangan. Davlat bu mulk egalariga faqat soliq solish va ma'lum majburiyatlarni yuklashi mumkin bo'lgan.

Mustaqillik yillarda ham bu masala yuzasidan qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Ulfat Abdurasulovning "XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi choragida Xiva xonligida yer munosabatlari" nomli tadqiqot ishida Xiva xonligidagi davlat yerlari, xususiy yerlar va vaqf yerlariga [6;83] keng to'xtalib o'tilganligiga qaramay, mazkur yer shakllaridan tashqari xonlikning barcha qismida mavjud bo'lgan jamoa yerlari, jamoa yerlariga egalik tartibi haqida ma'lumotlar keltirilmagan. Vaholanki, Xiva xonligida jamoa yerlari XIX asrgacha mavjud bo'lgan va mazkur yerlar xonlik aholisining umumiy tartibda foydalilaniladigan yerlari hisoblangan. Keyinchalik jamoa yerlari mahalliy yirik yer egalarini tomonidan o'zlashtirilishi natijasida tugatilgan va mulk yerlari tarkibiga kirgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Podshohlik yerlari boshqa yer shakllariga nisbatan keyinroq o'zlashtirilgan yerlardan tashkil topgan bo'lib, ushbu yerlar hajmi XIX asrga kelib ko'paya borgan va asosan, vohaning g'arbiy qismida Ko'hna Urganch atrofi, Qilichniyozboy va janubiy qismida Hazorasp atroflarida mavjud bo'lgan. Mazkur yerlarni yer egalarining o'zları emas, balki bevatan bat-raklar, mardikorlar ishlab bergen va ular yerga egalik huquqiga ega bo'lmagan, balki ushbu yerdan vaqtincha foydalanish huquqiga ega hisoblanganlar. Agarda podshohlik yerida dehqonchilik qiladigan shaxs vafot etgan taqdirda ushbu yerdan foydalanish huquqi uning farzandlariga o'tgan va ular shu yerda dehqonchilik qilishda davom qilganlar. Vaholanki, podshohlik yerlarida dehqonchilik qiluvchi shaxs bu yerlarning haqiqiy egasi hisoblanmasa-da, lekin bu yerda yetishtirilgan hosilning va shu yerda o'zi tomonidan qurilgan imoratlarning to'liq egasi hisoblangan. Demak, Xiva xonligidagi barcha yersiz dehqonlar ijrador, batrak yoki mardikor deb atalganlar. Ular ijagara olingan yer shakliga

TARIX

qarab esa quyidagilarga bo'lingan: 1. Bevatanlar – davlat yoki podshohlik yerlarini ijara olgan shaxslar [7;65].

2. Koranda – xususiy yoki mulk yerlarini ijara olgan shaxslar.

3. Vaqfkor – vaqf yerlarida ijara olgan shaxslar. M.Yo'ldashevning yozishicha, bevatanlar o'rtacha 5-7 tanob yerni ijara olganlar va har 5 tanob yerga 1 tillodan "salg'ut" to'laganlar [8;206]. Davlat ixtiyoridagi yerlar miqdorining oz bo'lganligi sababli, bevatanlarning ijaraadagi yerlari xonlikda juda kam hissani tashkil etgan. Davlat yerlarida dehqonchilik qiluvchi dehqonlar 2 xil tartibda "dayak" to'laganlar. Chig'irsiz sug'oriladigan yerlar uchun hosilning 1/5 miqdorida, chig'ir orqali sug'oriladigan yerlar uchun esa hosilning 1/10 miqdorida soliqqa tortilganlar. XIX asrga kelib, Xiva xonlarining shaxsiy yerlari ko'paya borgan. Xiva xonlari ayni vaqtida davlatning eng yirik feodal yer egalari hisoblangan. Chunki ularning ixtiyorida ham bir qancha xususiy yerlar bo'lgan. Xonlik hududidagi eng yaxshi yerlar, bog'lar xon va uning avlodlari qo'lida bo'lgan. Q.Munirovning tahlillariga ko'ra, bu yerlarda yersiz dehqonlar, majburiy ravishda ko'chirib keltirilgan kishilar va qullar mehnatidan keng foydalanilgan [9;11]. M.Yo'ldashev o'z tadqiqotida xonlar juda katta xususiy yoki podshohlik yerlarining xo'jayini bo'lganligini va ular davlatning birinchi feodali ekanligini yozadi [10;37]. Albatta, xonlarning katta yer maydonlariga egalik qilish holati yirik feodal yer egaligining yana bir ko'rinishidir. Demak, xonlar davlat yerlarini va ulardan tushgan soliqlarni nazorat qilganlar hamda ularning ixtiyorida shaxsiy manfaatlarini ifodalovchi mulk yerlari ham bo'lgan. Xususan, Ogahiy 1846-1847 (hijriy 1263 yil) yil Muhammad Aminxon Ko'hna Urganch va Ko'hna Vazir hududlaridagi suv bormaydigan dehqonchilik qilishga noqulay hududlarga suv chiqarish maqsadida Sharqiroviq daryosining o'ng tomonidan yop (kanal) qazdirganini yozadi [11;47].

Bu yerlarga suv chiqarilib, dehqonchilik qilishga qulay sharoit yaratilgan va ushbu ekin maydonlari xonning ixtiyoriga o'tgan. Ogahiy o'z asarlarida Xiva xonlarining qaysi shaharlarda mulk yerlari mavjudligiga to'xtagan, ammo ushbu mulk yerlarning hajmi qanchaligi borasida biron bir ma'lumot keltirmagan. Xiva xonlarining ixtiyoridagi mulk yerlar asosan xonlik hududining dehqonchilik uchun qulay unumdar yerlaridan tashkil topgan. Xonlarning xususiy yerlari Amudaryoning o'ng tomonidagi hududlarda ham ko'pchilikni tashkil qilgan. Sho'raxon va Shayx Abbas Vali yerlari 1865-1866 yillargacha, ya'ni Said Muhammadxon davrigacha davlat yerlari hisoblangan. Keyinchalik mazkur yerlar Said Muhammadxonning ixtiyoriga o'tgan. Oqmasjid, Qo'ng'irot, Dovkara va Sho'raxon hududidagi korandalar ishlagan yerlari xonlarning xususiy mulki bo'lib, u yerlardan olingen g'alla hisobini mazkur hududlarni boshqaradigan shaxslar, ya'ni mushriflar nazorat qilib borganlar. Xiva xonligining Muhammad Aminxon davriga oid g'alla kirim-chiqimlari haqidagi daftarda quyidagilar keltirilgan [12;28]. jumladan, 1848 yildagi Sho'roxon hududidagi mulk yerlaridan "bir ming to'qqiz botmon bug'doy, ikki ming yetti yuz oltmis besh botmon kunjut, bir ming ikki yuz o'n bir botmon mosh, yuz dog'i besh botmon g'uvocha, uch yuz dog'i besh botmon tarig", o'ttiz ikki botmon zig'ir" hosil olingenligi qayd etilgan [13;63].

Albatta, taxtga yangi o'tirgan har bir xon o'zlashtirilmagan yerlarning eng yaxshi qismiga egalik qilishga harakat qilgan va ular ko'proq xonlikning chekka hududlaridagi o'zlashtirilmagan yerlariga yangi suv tarmoqlarini qazdirish orqali suv chiqarib, mazkur ekin maydonlarini o'z ixtiyorlariga o'tkazib borganlar. Zero, poytaxt yaqinidagi yerlarning aksariyati shu yerlik katta zamindorlar qo'lida bo'lgan. Demak, mamlakatdagi xonning ixtiyorida bo'lgan bog'lari va ekin yerlari davlat yerlari tarkibiga kirmsandan, uning xususiy mulki sanalgan. Bu yerlar xonning alohida mulki hisoblanib, juda ko'p ariqlar orqali sug'orilgan, bu yerlarda juda ko'p qullar mehnatidan foydalanilgan. Bu qullar, asosan, qoraqalpoq qishloqlaridan haydab kelingan asirlardan tashkil topgan. Mulk yerlar (Mulki-hurri-xolis) 3 turga bo'lingan va turiga qarab soliqqa tortilgan bo'lib, 1) atoyi mulk (ata-i mulk), 2) yorliqli mulk, 3) otliq yerlar. Atoyi mulk meros mulk bo'lgan va ular xonning qarindoshlari va yuqori davlat amaldorlariga tegishli yerlar bo'lib, yeri uchun kam miqdorda soliq to'lagan, ba'zi joylarda esa umuman soliqqa tortilman. Atoyi mulk egalari mazkur yerga nisbatan egalik huquqini tasdiqlovchi maxsus hujjatga ega bo'lganlar va podshohlik yerlaridan shu jihatdan farq qilgan. Atoyi mulk yorliqli mulkdan huquqiy jihatdan deyarli farq qilmagan, chunki mazkur yer shakli egalari ham xon tomonidan berilgan yerga egalik huquqini tasdiqlovchi maxsus hujjatga ega bo'lganlar. Tadqiqotchi O.Jalilov atoyi mulk shaklidagi yerlar xonning qarindoshlariga, yirik amaldorlar, ayrim toifadagi ruhoniylar, xonlikka xizmat ko'satgan navkarlar (otliq navkarlar)ga

tegishli yerlar ekanligini, mazkur yer egalari ham soliqlardan ozod qilinganligini tasdiqlovchi xon tomonidan berilgan yorliqqa ega bo'lganligini yozadi [14;20]. Tadqiqotchi ana shunday yorliqqa ega shaxslarni esa "yorliqdor" deb ataydi, biroq u ham atoyi mulk va yorliqli mulkka egalik tartibini va ularning asosiy farqini batafsil yoritib berolmay, mulk yerlari hisoblangan otliq yerlar va atoyi yerlarni tavsiflash jarayonida ikkala mulk turini aralashtirib yuborganligi ko'zga tashlanadi. Zero, atoyi yerlar, haqiqatan, xon qarindoshlariga, davlatdagi yirik amaldorlarga va ruhoniylarga xon tomonidan ma'lum xizmatlari evaziga in'om etilgan yerlar hisoblangan va bu yerlar mulkdorning xonga xizmati davrida soliqlardan ozod qilingan. Xon xizmatida bo'lmagan davrlarida esa boshqa mulklar qatorida soliqqa tortilgan. Zero, ushbu davrda mamlakatning asosiy daromad manbalaridan biri soliqlar hisoblangan. Yorliqli mulklar esa xon tomonidan in'om etilmasdan, balki mulkdorlarga ma'lum mablag' evaziga berilgan yerlar bo'lgan, aniqroq qilib aytganda, mazkur yerga egalikni tasdiqlovchi yorliq hujjatlari sotilgan. Ayrim hollarda yorliqlarning bahosi juda yuqoriligidan aholi yerga egalik hujjatini sotib olishni emas, balki yerkarni ijaraga olishni va yerdan foydalanganlik uchun oddiy soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tgan holda soliq to'lashni ma'qul ko'rgan. Ushbu holda yerdan foydalanuvchilarining yerlari yorliqli mulk qatoriga kirmagan. Demak, atoyi mulk va yorliqli mulklarning farqi yerga egalik huquqining qo'lga kiritilishi va soliqqa tortilishi bilan belgilangan. Atoyi mulk egalari xon xazinasiga yer solig'i (salg'it, salg'ut-kesma) emas, balki uy yoki hovli solig'ini to'lashgan. Bu soliq mulkdorning yeriga qarab emas, balki mol-mulkining miqdoriga ko'ra olingan. Albatta, bu daromad solig'inining bir ko'rinishi sanalgan. O.Shkapskiyning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, xonlikdagi atoyi mulk egalari 3 toifaga bo'lingan: 1) adno (quyi), 2) avsat (o'rta), 3) a'lo (yuqori). Quyi tabaqa yer egalari qancha yerga egalik qilishidan qat'iy nazar har hovli uchun 2 tillordan podat to'laganlar. O'rta tabaqaga mansublar 4 tillordan, yuqori tabaqa vakillari esa 6 tillordan soliq to'laganlar. Albatta, Xiva xonligida soliqlarni bu shaklda to'lash 100 yilga yaqin davr mobaynida qo'llanib kelingan. Zero, shu tariqa har 20 yilda xon buyrug'i bilan atoyi mulk egalarining ahvoli to'g'risida ma'lumotlar yig'ilib borilgan va shu ma'lumotlar asosida har bir oila past tabaqadan o'rta yoki yuqori toifagacha ko'tarilib borgan. Atoyi mulk shakli xonlikning Hazorasp, Xiva, Bog'ot, Xonqa, Kat, Gurlan, Mang'it, Qipchoq, Xo'jayli, Qo'ng'iroq, Qiyot, Shovot, G'azavot, Qo'shko'pir hududlarida keng tarqalgan. Demak, atoyi mulk egalari, asosan, Xorazmning tub o'troq aholisi hisoblangan. Ammo M.Yo'ldashev bu masalaga boshqacha yondashadi. Uning yozishiga ko'ra, XIX asrning o'talarida Xiva xonligida yer egaligi, taxminan, quyidagicha bo'lgan. Jumladan, bevosita yer egalari – bu kategoriya adno va avsat toifasidagi dehqonlar kirgan. Ularning jami yer-maydonlari 64 ming tanobni tashkil etgan. Shuningdek, mulkdorlar – bu kategoriya a'lo yer egalari kirgan bo'lib, ularning jami yer-maydonlari 70 ming tanobdan iborat bo'lgan. Hamda, davlat va vaqfga tegishli yerlar bo'lib, ularning jami 250 ming tanob bo'lgan. Yorliqli mulklarning o'ziga xos xususiyati shuki, mulk egasi xon tomonidan berilgan maxsus yorliq orqali umrining oxirigacha bu yer ga to'liq egalik qilgan va vafotidan so'ng egalik huquqi uning vorislariiga meros bo'lib o'tgan. O.Shkapskiyning "Amudaryo ocherklari" asarida yozilishicha, vaqt o'tishi bilan Xiva xonlari buyrug'i asosida podsholik yerlaridan foydalanuvchi dehqonlarga ayrim imtiyozli huquqlar berila boshlangan va ayrim yer egalariga "yorliq" deb ataladigan, yerdan foydalanish huquqini bildiruvchi maxsus hujjat yozib berilgan. Ushbu hujjat yer egalariga davlat yeridan foydalanishdagi mulk huquqini qonuniy mustahkamlab bergen va bu yerlar "yorliqli mulk" deyilgan. Xon tomonidan berilgan yorliqlaridan foydalanish huquqi umrbod bo'lsa-da, ammo xon o'zgargan taqdirda mazkur yorliqlar ham yangisiga almashlab olingan. Bu ikki xil tartibda amalga oshirilgan, ya'ni hukmdor avvalgi yorliq ustiga o'zining shaxsiy muhrini bosib bergen yoki yangi hukmdor eski yorliqqa qarab yangi yorliq yozib bergen. I.Magidovichning ma'lumotiga qaraganda, yorliqli mulk shaklidagi yerlar xonlikning Gurlan, Ambar-Manak, Ilyali, Mang'it, Qipchoq va Xo'jayli hududlarida bo'lgan. O.Shkapskiyning ma'lumotiga ko'ra esa, yorliqli mulklar, asosan, xonlikning sharqiy qismida, ya'ni Toshovuz, Anbar-Manak, Ilyali, Qilichniyozboy, Porsu va Ko'hna Urganch atroflaridagi yerkardan iborat bo'lgan. Mazkur yer egalariga xon tomonidan yer solig'i – salg'it solingen [15;65]. O.Shkapskiy xon buyrug'i bilan dehqonlarga bo'lib berilgan yorliqli yerlarning umumiyligi miqdorini 400 tanobga tengligini yozgan [16.104]. Vaholanki, xonlikdagi bir yolg'iz dehqon o'z kuchi bilan 5 tanobdan ortiq yerga ishlov berolmagan. Demak, 400 tanob yerda 80 kishi mehnat qilishiga to'g'ri kelgan. Albatta, bundan ma'lum bo'ladiki, xonlikdagi ekin maydonlarining asosiy qismi yuqori tabaqa vakillari qo'lida bo'lgan va ularning yerlarida ko'plab ijara chilar mehnat qilgan.

TARIX

“Nashi sosedи v Sredney Azii. Xiva i Turkmeniya” asarida ekin yerlari har bir kishiga hisoblaganda o'rtacha 4 tanob (Tanob – 900 m. kvga teng bo'lgan uzunlik o'chovi)dan to'g'ri kelishi yozilgan [17;123]. Albatta, bu mamlakatdagi barcha ekin yerlarining xonlik aholisiga teng taqsimlab chiqilgandagi taxminiy holati hisoblangan. Bunday yerlar tarkibiga ekishga yaroqli va ekishga yaroqsiz yerlar ham kiritilgan. Zero, yuqori tabaqa yer egalari 8-10 tanob yerga egalik qilganlar, lekin xonlikdagi kambag'allar hisobidagi yerlar 1 tanobga ham yetmagan. Oddiy dehqon uchun xondan yorliq olish juda qimmatga tushgan, shuning uchun ular yorliq olishdan ko'ra soliq to'lovchilar ro'yxatiga kirishni afzal bilganlar. Demak, atoyi mulk va yorliqli mulklarning farqi yerga egalik huquqining qo'lga kiritilishi va soliqqa tortilishi bilan belgilangan. Albatta, xon yorlig'iiga ega bo'lmagan mulkdorlarning yerlari ham xuddi yorliqli mulklar bilan bir xil shaklda soliqqa tortilgan. Bunday dehqonlar “mulkdorlar” deb atalib, yerlari esa xon yorlig'iiga ega bo'lmagan boshqa mulklar soniga kiritilgan. 1873 yilga kelib yorliqli yerlarga ishlov berishda qullar mehnatidan foydalanish samarali bo'lgan. Natijada yorliqli yerlarni olingan hosilning teng yarmini soliq tarzida to'lash evaziga ijara bera boshlaganlar. Bu tarzda yerlardan foydalanuvchilar esa yarimchilar deb atalgan. O.Qo'shjanov o'zining XIX oxiri – XX asrning boshlarida Xiva xonligida agrar munosabatlar tarixiga bag'ishlangan dissertatsiyasida Xiva xonligidagi mulk yerlarini atoyi mulk, yorliqli mulk va oddiy mulk shakllariga ajratib ko'rsatadi va yorliqli mulk hamda oddiy mulk shakllarining xususiy mulk emas, balki davlat yoki podshohlik mulki hisoblanishini yozadi va muallif o'zi tomonidan bildirilgan fikrga shu tarzda qarshi chiqadi. U mulk yerlarini va davlat yerlarini aralashtirib yuborgan va xonlikning podshohlik va mulk yerlarini aniq kategoriyalarga ajratib berishda va mazmunini yoritib berishda xatolikka yo'l qo'ygan. Xiva xonligida, O.Qo'shjanov ta'kidlaganidek, oddiy mulk shakliga kimlarning ixtiyoridagi yerlar kirishini batafsil izohlab bera olmagan. U soliq daftarlarda yozilgan yer egalarining yerlarida ishlagan insonlarning yerlarini oddiy mulk deb hisoblagan. Ammo xonlikdagi yirik yer egala-rining qo'lida ishlagan dehqonlar ijachilar bo'lib, ular mazkur yerga nisbatan egalik huquqiga ega bo'lmagan, faqat yetishtirilgan hosilning ma'lum qismigagina egalik qilganlar, xolos. Davlat yerlаридаги ijachilar ham xuddi yirik yer egalarini yerlаридаги ijachilar kabi mazkur yerga nisbatan hech qanday egalik huquqiga ega bo'lmасдан, faqat yerdan olingan hosilga va o'zi tomonidan qurilgan imoratlarga egalik qilgan. Demak, yersiz ijachilar na yirik yer egalarining yerlariga va na davlat yerlariga nisbatan hech qanday egalik huquqiga ega bo'lmagan va O.Qo'shjanov keltirgan oddiy mulk shakli ko'rinishlari xonlikda umuman mavjud bo'lmagan [18;73].

Xiva xonligida “otliq yerlar” ham mavjud bo'lgan. Otliq yerlar deyilishining asosiy sabablardan biri, bu yerlar turkmanlarga taqsimlab berilgan yerlar bo'lib, ushbu yerlardan foydalanganliklari uchun urush vaqtida har 30 tanob (5 desyatina) yer egasi bitta qurollangan ot bilan xonga xizmat qilib berishi kerak bo'lgan va shu tarzda xon turkmanlarni o'z ta'siri doirasida ushlab turishga harakat qilgan. Otliq yer egalaridan hech qanday soliq turi olinmagan. Vaqt o'tishi bilan otliq yerlar nomi shu shaklda saqlanib qolgan. XIX asrda kelib, Xiva xonligi hududi Rus imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyingi davrlarda, Xiva xonining turkmanlardan tashkil topgan otliq askarlarga ehtiyoji qolmagan va otliq yer egalarini bo'lgan turkmanlar ham yeriga qarab soliqqa, ya'ni salg'ut kesmega tortila boshlangan. Bu soliq turini mulk huquqi asosida yerga egalik qilgan va xon xizmatida bo'lmagan turkmanlar to'lagan. Qolgan yersiz turkmanlarga davlat yerlardan yer berilib, umumiy asosda ulardan “dayak” olingan. Xonlikdagi barcha aholi esa jon boshiga qarab soliqqa tortilgan. Faqatgina xon tomonidan yorliq berilgan saidlar, xo'jalar yoki payg'ambar avlodlari hisoblangan shaxslar barcha soliqlardan ozod qilingan. Xiva xonligidagi mazkur yer egaligi shakli yer maydoni va boshqa jihatlariga ko'ra O'rta Osiyoning boshqa hududlarida XVI asrda yuzaga kelgan “tanho” deb nomlanuvchi yer egaligi shakliga yaqinroq bo'lgan. Buxoro hududida xonlar tomonidan harbiy xizmatchilarga va mamlakatning boshqa imtiyozli aholisiga in'om qilingan yerlar “tanho” deb nomlangan. O.Jalilov xonlikdagi mavjud otliq yerlarni tahlil qilar ekan, ularni podshohlik yerlari tarkibiga kirgan va bu yerlar turkmanlarga xon tomonidan ma'lum muddatga vaqtinchalik berilgan yerlar, deb yozgan. U otliq yerlar turkmanlarning otliq navkarlariga tegishli yerlar ekanligini to'g'ri talqin qilgan bo'lsa ham, ammo ushbu yerlarni xon tomonidan vaqtinchalik foydalanishga berilgan deb hisoblab, biroz xatolikka yo'l qo'ygan. Zero, mazkur yerlar podshohlik yerlari tarkibiga kirgan emas, balki mulk yerlari sanalgan va unga egalik huquqi avloddan-avlodga meros bo'lib o'tgan. Xususiy yerlarni ijara olib, dehqonchilik bilan

shug'ullangan shaxslar mulk egasining ijara shartlarini bajarishi bilan bir vaqtida, mazkur yer uchun mulkdorning o'rniغا davlatga soliq ham to'laganlar. Qazuv paytida oilasidan bitta ishchi berishi ham talab qilingan. Batraklar esa majburiyatlarni bajarolmay va soliqlarni to'lay olmay, bir umr mulkdorning quliga aylanib qolganlar. Demak, batraklar bilan ijaradorlarning farqi, ijarador yerni ijara olib ishlash uchun mehnat quroli yoki urug'likka ega bo'lgan shaxs bo'lsa, batrak esa na mehnat quroliga va na urug'likka ega bo'lgan shaxs hisoblangan. Batraklar mulkdordan yer bilan unga ishlov berish uchun mehnat quroli va ekiladigan urug'likni ham ijara olib, yerda mehnat qilganlar hamda yer, mehnat qurollari va urug'lik uchun ijara haqini to'lashga majbur bo'lganlar. Xiva xonligidagi oddiy xalq soliq va majburiyatlar og'irligidan qarzga botib, ijaradorlar batraklarga, batraklar esa bir umrga qulga aylanib qolganlar. XIX asrga kelib, ayniqsa, yersiz qullar soni tez sur'atda ko'paya borgan. Jumladan, Muhammad Rahimxon davriga kelib, xonlikda yirik yer egalari tomonidan quiyi tabaqaga mansub qatlamlarning kam sonli yerlarini ham zo'ravonlik asosida tortib olish jarayoni kuchaygan. Bu esa XVIII – XIX asrlarda yersiz dehqonlar tomonidan norozilik harakatlarining kuchayishiga sabab bo'lgan. Bu holat keyinchalik ham davom etgan. Jumladan, 1900-1913 yillarda Xiva xonlarining amaldorlaridan Omongeldi hisobida 2000 tanobdan ortiqroq yer, Matmurod devonbegida esa 2-2,5 ming tanobdan ortiqroq ekin yerlari mavjud bo'lgan. Mamlakatning jami ekin ekiladigan hosildor yerlarining asosiy qismi xonlikning yirik yer egalari, amaldorlari ixtiyorida bo'lib, ular aholining 5 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 30 foizini yarim tanobdan 3 tanobgacha yerga egalik qiladigan dehqon xo'jaliklari, 11 foizini esa mutlaqo yersiz aholi tashkil qilgan [19;136].

Xiva xonligida 1873 yilgacha xondan keyingi yirik zamindorlar amir ul-umarolar hisoblangan va ularning ixtiyoriga xonlikning Hazorasp, Pitnak, Sho'raxon shaharlari va ularning atroflaridagi butun qishloq yerlari kirgan. Xonlar ko'pincha qo'l ostidagi mulk yerlarini amaldorlariga sadoqatli xizmatlari uchun sovg'a qilganlar. Jumladan, manbalarda 1861 yili Uyg'ur tumanining yirik amaldori Mehtar qushbegi va qoraqalpoq Niyozbiylarga 40 tanob yer in'om qilinganligi keltirilgan. Xiva xonligi davri yorliq hujjatlaridagi yozilgan ma'lumotlarga ko'ra, Xiva xonlari davlat yerlari va o'zlariga qarashli mulk yerlarini yirik feodallarga katta mablag' evaziga sotganligi va u qo'shining ehtiyoji uchun sarflanganligi qayd etilgan [20;1385]. XX asr boshlariiga kelib Xiva xonligida xonlar tomonidan feudal amaldorlarga bir necha yuz va minglarcha tanob davlat yerlari uzoq muddatga ijara berila boshlangan. Jumladan, 1912 yili Safaryansga 30 ming tanob yer uzoq muddatga, 1910 yili 16 sentabrda knyaz P.P.Galitsenga 40 ming tanob bo'sh yer 99 yil muddatga ijara berilgan. Demak, Xiva xonlari XX asrning boshlariiga kelib, mahalliy amaldorlar bilan bir qatorda chet ellik amaldorlarga ham xonlik hududidan ijara yer-mulk berish tartibini joriy qilishgan. Xiva xonligida vaqf (Vaqf – musulmon qonun-qoidalariga muvofiq davlat yoki ayrim kishilar tomonidan xayrli maqsadlar uchun ajratilgan mol-mulk yerlar ham mavjud bo'lgan [21;54]. Ushbu yerlarning haqiqiy egasi sifatida Olloh nazarda tutilgan va ular masjid, madrasalarga qarashli yerlar bo'lgan. Aslida bu yerlarga egalik huquqi mutavallilarga tegishli bo'lib, ushbu yerlar ham avloddan avlodga meros shaklida o'tgan. Xiva xonlari vaqf uchun katta-katta yer maydonlarini in'om qilishlaridan tashqari, har yili masjid va madrasalar uchun davlat hisobidagi g'alla hosilidan berib borilgan [22;150]. Bu borada quyidagicha ma'lumotlarni keltirib o'tish o'rinnlidir. Xususan, Madaminxon madrasasi uchun har yili o'n ikki ming botmon g'alla berilgan, ya'ni 5 nafar oxun (madrasa o'qituvchilari)ga uch ming botmon, 1 nafar muazzzinga ikki yuz botmon, 2 nafar mutavalliga umumiy daromadning o'ndan bir qismida ulush berilgan. Qolganlari madrasa tolibliari orasida taqsimlangan. Ular sinflarga ajratilgan bo'lib, 1-sinfga oltmis botmon, 2-sinfga ottiz botmon, 3-sinfga o'n besh botmon berilgan. Shuningdek, Ollohqulixon madrasasiga ellik botmon, Qutlug' Murod inoq madrasasiga ellik botmon g'alla ajratilgan. Vaqf yerlarida dehqonchilik qiladigan ijachilar, yuqorida keltirilganidek, vaqfkorlar deyilib, ular ham xonlikdagagi asosiy ishlab chiqaruvchilar hisoblanmagan. Bir yilda davlatdagi mavjud jami vaqfchilardan olingen soliq miqdori 576 tilla salg'utni tashkil qilgan. Chunki, vaqf yer egalari yerlarini ijara bermasdan, balki qullar va xonavayron bo'lib, yersiz qolgan dehqonlarni ishlatishni ma'qul ko'rganlar. Ular dehqonlarni yollab ishlatganlar va undirilgan g'alla hosili ham mutavallilarning ixtiyorida qolgan. Lekin vaqf mulkdorlari faqatgina ishlash qiyin bo'lgan yer maydonlarini ijara berganlar. Podshohlik yerlariga qaraganda vaqf va mulk yerlari kam miqdorda ijara berilgan, buning sababi mazkur mulk egalari o'z yerlarida ijachilardan ko'ra deyarli tekinga tushadigan batraklar mehnatidan foydalanishni ma'qul

TARIX

ko'rganlar. Batraklar mazkur yerlarda ishlaganligi uchun hosilning bir qismini emas, balki oziq-ovqat, kiyim-kechak olish bilan kifoyalanganlar. Vaqf yerlari soni xonlarning mutavallilarga in'om qilgan yerlardan tashqari xonavayron bo'lgan xo'jaliklarning yerlarini sotib olish evaziga ham oshib borgan. Jumladan, Xiva qozilik hujjatlari katalogiga kiritilgan. Shu o'rinda №117, 1268 raqamli hujjatda "Yerni sotib oluvchi to'lagan pullari u Do'st-Validagi qurdirgan masjidi vaqfidandir" deb yozilgan [23;1268]. Xiva xonligida XIX asrgacha jamoa yerlari ham mavjud bo'lgan. Yirik zamindorlar jamoa mulki sanalgan o'rmonlarni daraxtlardan tozalab, yaylovlarni o'zlashtirib, u yerlarda yangi kanallarni qazdirib, jamoa mulklarini zo'rlik yo'li bilan o'zlashtirganlar. Ular mazkur yerlarni o'zlashtirish jarayonida yangi yerlarda kanal qazdirib, shu yerlarni ekin maydonlariga aylantirgan shaxslar bu yerlarga egalik qilish huquqiga ega, deb hisoblangan musulmon qonunlarini asos qilib olganlar. Jamoa boshliqlari kam yerga ega bo'lgan, ammo ekish uchun urug'likka ega bo'limgan dehqon bilan sheriklik shartnomasini tuzish yo'li bilan ularni qarzga botirganlar. Shu tariqa kam sonli yerli aholining yerlarini o'z ixtiyoriga o'tkazganlar. Jamoa yerlarni o'zlashtirish jarayonida shu yerlik aholi o'rtasida taqsimlash orqali ham amalga oshirilgan va unda xo'jaliklarning yerni ekish imkoniyatiga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, har kim jamoa yerlarni taqsimlash vaqtida yerda mehnat qilishga yaroqli barcha oila a'zolari, mehnat qurollari, qo'shlari, ishchi hayvonlari va ekiladigan urug'ligi bilan qatnashganlar. Tabiiyki, katta hududdagi ekin maydonlari yerni ishslash imkoniyati yuqori bo'lganligi sababli yirik zamindorlar ixtiyoriga o'tgan. Jamoa yerlarni taqsimlash davlat ruxsati bilan amalga oshirilgan va taqsimlangan yer uchun hujjat yozib berilgan hamda yangidan o'zlashtirilgan yerlar soliqqa tortish uchun davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Xiva xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilganidan keyin ham yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarda keskin o'zgarishlar sodir bo'limgan. Yerga egalikning oldingidek uch xil shakli, ya'ni davlat yer egaligi, mulk yer egaligi, vaqf mulk yer egaligi saqlanib qolgan. Xonlikning yer egaligi va agrar munosabatlarini o'rganish jarayonida mazkur davrda Xiva xonligining yer fondi qanday tartibda taqsimlanganligini va yer egalarining turli kategoriyalarining yerdan foydalanish usullarini o'rganish va yoritib berish asosiy masalalardan birdir. Materiallarni sinchiklab o'rganish jarayonida Xiva xonligidagi yerga egalik masalalarida shu davrgacha mavjud quyidagi konsepsiylar rad etildi. Jumladan, Xiva xonligi hududidagi jami yerlar (o'zlashtirilmagan va o'zlashtirilgan)ning va ekishga yaroqli yerlarning ko'pchilik qismi davlatga qarashli bo'lganligi hamda ularning yagona egasi xonning o'zi ekanligi haqidagi qarashlar asossiz bo'lib chiqdi. Xiva xonligida ekishga yaroqli yerlarning o'ndan bir qismi mayda yer egalariga, yettidan bir qismi davlatga va yarmidan ko'prog'i yirik yer egalariga tegishli bo'lgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Xiva xonligidagi yirik feodallar qo'l ostidagi yerlar XVIII – XIX asrlardagi mamlakat ichkarisi va tashqarisidagi o'zaro urushlar davrida aholining yerlarni zo'rlik yo'li bilan tortib olish va katta sug'orish tarmoqlarini qurish orqali yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga kengayib borgan.

Xonlikda yerga egalikning davlat yoki podshohlik yerlari, mulk yerlar, vaqf yerlar va XIX asrning boshlarigacha jamoa yerlari mavjud bo'lgan. Bu masalada Xiva xonligi aholisi qadim va o'rta asrlarda mavjud bo'lgan an'analarini davom ettirish bilan o'z zamonasi talablaridan kelib chiqib, ayrim amaliyotlarni joriy qilganliklari ko'zga tashlanadi. Buni xonlik davrida yer mulklari, mulkka egalik, yerdan foydalanish, hosil olish va ularning taqsimoti bilan bog'liq qadimgi xorazmcha atamalar bilan birga, arabcha, turkiy va turk-mo'g'ulcha so'z va atamalar ko'plab uchrashi tasdiqlaydi.

XIX asrning boshlariga kelib, yirik yer egalari tomonidan jamoa yerlari to'liq o'zlashtirilishi natijasida jamoa yerlari mulk yerlarining tarkibiga kirgan va jamoa yer shakli butunlay tugatilgan. Shu bilan birga, bir vaqtlar ko'chmanchi chorvador turmush tarzi ustuvor bo'lgan ko'chmanchi o'zbek, turkman, qoraqalpoq urug'lari o'troq turmush tarziga o'tishlari va dehqonchilik bilan shug'ullana boshlashlari natijasida dehqonchilikka yaroqli va unumdar yerlarga bo'lgan ehtiyoj yanada oshib ketgan. Ushbu elat va urug'larning o'troqlashuvi bilan bog'liq muammolarni hal qilish hukumat darajasigacha chiqqan bo'lib, xonlikning harbiy ishlarida qilgan xizmatlari evaziga ularga imtiyoz sifatida dehqonchilik bilan shug'ullanishga mos yer mulklari ajratilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nurjonov K., Xo'janiyozov G'. Amudaryo. – Toshkent, 2004.
2. Nurjonov K., Xo'janiyozov G'. Amudaryo. – Toshkent, 2004.
3. Сазонова М. Материалы к истории земледельческой техники в Хорезме. Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945-1948 г. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1952. Часть I.
4. Муравьев Н. Путешествие въ Туркмению. Часть I. – Москва: в типографии Августа Семена, 1822.
5. Магидович И. Национальный состав Хорезмской области // Территория и население Бухары и Хорезма. – Ташкент: Изд. Комиссии по районированию Средней Азии, 1926.
6. Абдурасулов У. К вопросу о классификации земельного фонда Хивинского ханства (вторая половина XVII – XIX в.) // O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2006. – № 2-3.
7. Шкапский О. Аму-Дарьинские очерки. Къ аграрному вопросу на нижней Аму-Дарье. – Ташкент: Типо-Литография, 1900.
8. Yo'ldashev M. XIX asr Xiva davlat hujjatlari. II tom. – Toshkent: O'zSSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1960.
9. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. – Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960.
10. Юлдашев М. Истории крестьян Хивы XIX века. – Toshkent: Fan, 1966.
11. Огажий. Гулшани давлат. Жилд 6. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
12. O'zMA. 125-fond. 2- ro'yuxat. 400 -ish, 28-varaq
13. Jalilov O. XIX-XX asr boshlaridagi Qoraqalpoq tarixidan. – Toshkent: Fan, 1986.
14. Jalilov O. XIX-XX asr boshlaridagi Qoraqalpoq tarixidan. – Toshkent: Fan, 1986.
15. Магидович И. Национальный состав Хорезмской области // Территория и население Бухары и Хорезма. – Ташкент: Изд. Комиссии по районированию Средней Азии, 1926.
16. Шкапский О. Аму-Дарьинские очерки. Къ аграрному вопросу на нижней Аму-Дарье. – Ташкент: Типо-Литография, 1900.
17. Наши соседи въ Средней Азии. Хива и Туркмения. – С.-Петербург: Типография товарищества "Общественная польза", № 5, 1873.
18. Qo'shjonov O., Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr birinchi choragi). – Toshkent: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007.
19. Qo'shjonov O., Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr birinchi choragi). – Toshkent: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007.
20. O'zR Xorazm viloyati Ichon qal'a fondi. Vaqf yer hujjatlari. P.Q. 1375; P.Q.1385.
21. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985.
22. Вамбери А. Очерки Средней Азии. – Москва: Восточная литература, 1868.
23. Урунбаев А., Хорикава Т., Файзиев Т., Джураева Г., Исогай К. Каталог Хивинских казийских документов XIX – начала XX вв. – Ташкент – Киото, 2001. – С. № 117.